



O'ZBEKISTONDA DAVLAT AUDITINI RAQAMLASHTIRISH VA MOLIYAVIY NAZORAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Otabekova Mohira Xamidjonovna

O'zbekiston Respublikasi

Bank-moliya akademiyasi magistranti

mohiraotabekova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22337335>

Bugungi kunda davlat moliyaviy nazoratining samaradorligi faqat aniqlangan moliyaviy buzilishlar hajmi bilan emas, balki budjet mablag'larining samarasiz sarflanishini oldindan aniqlash, xarajatlarni maqbullashtirish va davlat daromadlarining qo'shimcha manbalarini safarbar etish imkoniyati bilan ham baholanmoqda. Shu jihatdan O'zbekistonda davlat audit tizimining raqamlashtirilishi moliyaviy boshqaruvning shaffofligi va natijadorligini oshirishning muhim yo'nalishiga aylanmoqda.

Hisob palatasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda 93 ta audit va o'rganish tadbiri hamda 62 ta tematik tahlil amalga oshirilgan. Nazorat tadbirlari natijasida 8,1 trln so'm budjet xarajatlari maqbullashtirilgan, 1,1 trln so'mlik noqonuniy xarajatlarning oldi olingan, budjet daromadlarini oshirish bo'yicha 7,6 trln so'mlik qo'shimcha manbalar aniqlangan. Shuningdek, 7,7 trln so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlanib, 2 trln so'mdan ortiq mablag'ning davlat budjetiga qaytarilishi ta'minlangan.

Raqamlashtirish nazorat tadbirlarining shakliga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. 2025-yilda "Masofaviy audit" axborot tizimiga 75 ta vazirlik va idoraning 259 ta ma'lumotlar bazasi integratsiya qilingan va audit tadbirlarining 50 foizdan ortig'i masofaviy shaklda amalga oshirilgan. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali davlat xaridlari sohasida 83 mlrd so'mlik qonunbuzilish holatlari bartaraf etilgan. Ilmiy tadqiqotlarda ham raqamli audit, ma'lumotlar tahlili va riskka asoslangan nazorat davlat sektorida tezkorlik, shaffoflik va hisobdorlikni oshirishi qayd etiladi.

Bunday yondashuv davlat moliyaviy nazoratini an'anaviy tekshiruv shaklidan profilaktik va riskka asoslangan nazorat tizimiga o'tkazishga xizmat qiladi. Bunda katta hajmdagi moliyaviy ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish orqali yuqori xavfli operatsiyalarni aniqlash, budjet mablag'laridan foydalanishdagi nomuvofiqliklarni erta bosqichda belgilash hamda audit resurslarini ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish imkoniyati yuzaga keladi. Ilmiy tadqiqotlarda ham raqamli audit an'anaviy retrospektiv tekshiruvdan uzluksiz monitoring va prognozga asoslangan nazoratga o'tish imkonini berishi ta'kidlangan.





Shu bilan birga, davlat auditini raqamlashtirish auditorlarning vazifalariga ham yangi talablarni qo'yimoqda. Endilikda auditor nafaqat moliyaviy hujjatlarning qonunchilikka muvofiqligini tekshirishi, balki ma'lumotlar tahlili, raqamli risklarni baholash va axborot tizimlari bilan ishlash ko'nikmalariga ham ega bo'lishi zarur. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalari audit jarayonining tezkorligini oshirsa-da, ma'lumotlarning ishonchliligi, axborot xavfsizligi va algoritmlar ustidan inson nazoratini saqlash muhim hisoblanadi.

Natijada O'zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini yanada takomillashtirishda masofaviy audit ko'lamini kengaytirish, davlat organlarining moliyaviy axborot bazalarini o'zaro integratsiya qilish, risklarni avtomatik aniqlash mexanizmlarini rivojlantirish hamda auditorlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar va professional auditning uyg'unlashuvi davlat mablag'laridan samarali foydalanish, moliyaviy xatolarning oldini olish va davlat moliyasining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

1-jadval

Davlat auditining ayrim natijaviy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2025-yil	2026-yil I yarim yillik
Audit tadbirlari	93 ta	55 ta
Masofaviy audit	50% dan ortiq	33 ta (60%)
Aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklar	7,7 trln so'm	1,5 trln so'm
Maqbullashtirilgan xarajatlar	8,1 trln so'm	2,3 trln so'm
Qo'shimcha daromad/soliq va majburiy to'lov manbalari	7,6 trln so'm	1,6 trln so'm
Masofaviy nazoratda aniqlangan risklar	—	27,1 trln so'm

Manba: O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2026-yilning birinchi yarim yilligida raqamli nazoratning ko'lamini yanada kengaydi. Hisob palatasi 55 ta audit tadbirini o'tkazib, ularning 33 tasini masofaviy shaklda amalga oshirdi. Auditlar natijasida 1,5 trln so'mlik moliyaviy xatoliklar aniqlandi, 2,3 trln so'm xarajatlar maqbullashtirildi hamda 1,6 trln so'mlik qo'shimcha soliq va majburiy to'lov manbalari aniqlandi. Masofaviy





nazorat markazi olti oyda 27,1 trln so'mlik risklarni aniqlab, 8 trln so'mlik risklarni bartaraf etdi. Sun'iy intellekt beshta yo'nalishda avtomatlashtirilib, 107 mlrd so'mlik qonunbuzilish holatlari bartaraf etildi.

Jadval ma'lumotlari davlat auditining an'anaviy tekshiruvdan masofaviy va riskka asoslangan nazorat modeliga o'tayotganini ko'rsatadi. Bunda katta hajmdagi moliyaviy ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash yuqori xavfli operatsiyalarni tezroq ajratish va nazorat resurslarini muhim yo'nalishlarga safarbar etish imkonini beradi. Riskka asoslangan ichki auditning samarali ishlashi boshqaruv qo'llab-quvvatlashi, auditorlarning roli, risklarni boshqarish tizimi va tegishli malakaga bog'liqligi empirik tadqiqotlarda ham ko'rsatilgan.

O'zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini yanada takomillashtirish uchun Hisob palatasi va boshqa moliyaviy boshqaruv organlarining axborot tizimlarini chuqur integratsiya qilish, davlat xaridlari va budjet xarajatlari bo'yicha avtomatik risk indikatorlarini kengaytirish, ichki auditorlarning ma'lumotlar tahlili va IT-audit bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, sun'iy intellekt asosidagi nazoratda ma'lumotlar sifati, algoritmlarning tushuntiriluvchanligi va inson tomonidan yakuniy baholash tamoyili saqlanishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda davlat auditini raqamlashtirish moliyaviy nazoratning tezkorligi va profilaktik imkoniyatlarini oshirmoqda. Kelgusida nazorat samaradorligini aniqlangan buzilishlar miqdori bilangina emas, balki oldi olingan zarar, maqbullashtirilgan xarajatlar, bartaraf etilgan risklar va audit tavsiyalarining real natijasi orqali baholash davlat moliyasini boshqarish sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi. Hisob palatasi 2025-yil yakunlari bo'yicha hisobotini e'lon qildi. 30.04.2026.
2. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi. Hisob palatasi tomonidan 2026-yilning birinchi yarmida amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilindi. 16.07.2026.
3. Sologashvili, D., & Udesiani, T. (2026). Digital accounting and financial audit as the foundation of smart governance.
4. Demina, I., & Krishtaleva, T. (2023). Organisation of Internal Controls and Financial Audits in the Public Sector Organisations.
5. Mujalli, A. (2024). Factors Affecting the Implementation of Risk-Based Internal Auditing. Journal of Risk and Financial Management, 17(5), 196.

